



TRADITIONS ASSOCIATED WITH BLACKSMITHING AND KNIFE-MAKING IN THE VALLEY REGIONS

Javlonbek Tilavoldiyevich Botirov

Assistant, Department of "Languages and Humanities"

Andijan State Technical Institute

Email: botirovjavlonbek24@gmail.com

Andijan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: National crafts, blacksmithing, knife making, Namangan, Chust, Andijan, Kokand, Shakhrikhan, Karasuv, plow, wooden plowshare, six plowshare, saw-toothed sickle, simple sickle.

Abstract: This article discusses the development of national crafts in our country, in particular the development of blacksmithing in the Fergana Valley, as well as the Namangan, Chust, Andijan, Kokand, Shakhrikhan, and Karasuv schools of blacksmithing. Moreover, information is provided on the history and current state of these blacksmithing and knife-making schools.

Received: 21.01.26

Accepted: 22.01.26

Published: 23.01.26

VODIY HUDUDLARIDA TEMIRCHILIK VA PICHQOQCHILIK BILAN BOG'LIQ AN'ANALAR

Javlonbek Tilavoldiyevich Botirov

"Tillar va gumanitar fanlar" kafedrası assistenti

Andijon davlat texnika instituti

Email: botirovjavlonbek24@gmail.com

Andijon, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Milliy hunarmandchilik, temirchilik, pichoqchilik, Namangan, Chust, Andijon, Qo'qon, Shahrixon, Qorasuv, omoch, taxta mola, six mola, arrasimon o'roq, oddiy o'roq.

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizda milliy hunarmandchilikning rivojlanishi, xususan Farg'ona vodiysida temirchilik hunarmandchiligining rivojlanishi, shuningdek temirchilikning Namangan, Chust, Andijon, Qo'qon, Shahrixon va Qorasuv maktablari haqida to'xtalib o'tilgan. Qolaversa ushbu temirchilik va pichoqchilik maktablarining tarixi va bugungi holati haqida ma'lumotlar keltirilgan.

ТРАДИЦИИ, СВЯЗАННЫЕ С КУЗНЕЧНЫМ ДЕЛОМ И НОЖЕВЫМ РЕМЕСЛОМ В ДОЛИННЫХ РАЙОНАХ

Жавлонбек Тилаволдиевич Ботиров

Ассистент кафедры «Языки и гуманитарные науки»

Андижанский государственный технический институт

botirovjavlonbek24@gmail.com

Андижан, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Национальное ремесло, кузнечное дело, изготовление ножей, Наманган, Чуст, Андижан, Коканд, Шахрихан, Карасу, плуг, деревянная мотыга, верёвка, пилообразный серп, обычный серп.

Аннотация: В данной статье рассматривается развитие национальных ремесел в нашей стране, в частности, развитие кузнечного ремесла в Ферганской долине, а также Наманганская, Чустская, Андижанская, Кокандская, Шахриханская и Карасуйская школы кузнечного ремесла. Кроме того, представлена информация об истории и современном состоянии этих кузнечных и ножевых школ.

Kirish. Farg‘ona vodiysi O‘zbekistonning eng qadimiy tarixiy-madaniy o‘choqlaridan biri bo‘lib, mintaqa aholisi qadimdan turli hunarmandchilik tarmoqlari bilan shug‘ullanib kelgan. Farg‘ona vodiysidagi hunarmandchilik tarmoqlari rivojida birinchi galda tabiiy-geografik sharoit asosida vujudga kelgan an‘analar muhim o‘rin tutgan. Mazkur hududda yashovchi o‘troq aholining xo‘jaligida temirchilikning turli sohaları, jumladan, pichoqchilik, misgarlik, degrezlik, cho‘yan quyish, tunukasozlik rivoj topgan bo‘lib, ushbu tarmoqlar negizida mahalliy an‘analarni o‘zida mujassam etgan hunarmandchilik markazlari vujudga kelgan.

Farg‘ona vodiysi hududida temirchilik va pichoqchilik markazlari juda ko‘p. Jumladan, Namangan, Chust, Andijon, Qo‘qon, Shahrixon va Qorasuv hududlarida temirchilik hamda pichoqchilik san‘ati qadimdan rivojlangan. Ushbu markazlarda barcha ustalar mahsulot tayyorlashda sifatli po‘latlar yoki ularning qoldiqlaridan foydalangan. Hunarmandlar orasida avloddan-avlodga o‘tuvchi mahsulot tayyorlash bilan bog‘liq an‘analarga qat‘iy rioya qilingan[1.23].

Vodiyda eng ko‘p tarqalgan va o‘zining tarixiy ildiziga ega mehnat qurollaridan biri bu – omochdir[2.59]. Omoch qismlari dastlab yog‘ochdan yasilib, uning uchi, ya‘ni tananing old tomoniga temir tish qadalgan, shu tish orqali yerga botirilib haydalgan. Vodiylik temirchilar cho‘yandan ishlangan omoch tishlarni temirdan yasashni afzal ko‘rganlar. Bunga sabab, temirdan yasalgan omoch tishlari cho‘yanga nisbatan chidamli bo‘lgan. Omochga tish quyuvchi ustalar ham xuddi pichoq yasovchi hunarmandlar kabi o‘z kasblarini sulolaviy davom ettirish maqsadida ishlab

chiqargan omoch tishlariga o'ziga xos tamg'alarni tushirish an'anasi bo'lgan[2.60]. Bu kabi tamg'alar o'z navbatida mahsulotni brendi sanalib, ushbu belgi orqali xaridorlar mahsulotni yasagan ustani topib, buyurtma berganlar.

Vodiy temirchiligidagi etnohududiy jihatlar turli markazlarda tayyorlanadigan o'roqlar misolida ham yaqqol namoyon bo'lib, bunday hududiy xususiyatlarga turli omillar, jumladan, etnik an'analar ham ta'sir etgan. Vodiyning Andijon, Qo'qon Chust va Baliqchi hududlaridagi temirchilar tomonidan tayyorlanadigan o'roqlar dehqonlar orasida nihoyatda qadrlangan. O'roqlar turli boshqoli ekinlar – bug'doy, arpa, sholi, shuningdek, beda va pichan kabilarni o'rib yig'ishtirishda ishlatilgan.

Vodiyda asosan, ikki xil turdagi o'roqlar keng tarqalgan bo'lib, birinchisi tig'i tekis, oddiy dastakli o'roq, ikkinchisi tig'i arrasimon tishga ega o'roqlar bo'lib, ular pichan va poyalarni yig'ishtirishda keng qo'llanilgan.

Shudgor yerlarni tekislash va ekin ekishga tayyorlashda odamlar qadimdan moladan foydalanilgan. Urug' ekishga yerni tayyorlashda asosan, ikki xil moladan foydalanilgan. Birinchisi "taxta mola" bo'lib, buni tayyorlashda og'ir daraxt o'rik, yong'oq, tut, qayrag'och va chinor g'o'lalaridan foydalanilgan. Ikkinchisi six mola bo'lib, taxtaga temir va cho'yandan yasalgan tishlar qotirilgan. Six mola Farg'ona vodiysining o'troq aholisi o'rtasida keng tarqalgan bo'lib, keyingi davrlarda yarim o'troq hamda yarim ko'chmanchi aholi vakillari ham keng foydalana boshlagan. Molada shudgor tekislanayotgan paytda ustiga og'ir toshlar quyib, mustahkamlab qo'yilgan. Bunda yerni tekislash bilan birga kesaklarni ezish mumkin bo'lgan.

Yuqorida vodiy temirchilari tomonidan tayyorlangan ayrim mehnat qurollariga to'xtalgan edik. Bundan tashqari, aholi qadimdan randa, bolta, arra, beshlik, g'alvir, tesha, kabi mehnat qurollaridan ham foydalanib kelingan. Ushbu mehnat qurollarining ibtidoiy ko'rinishlari ham mavjud bo'lib, ular paleolit davrida toshlar, keyinchalik mis va bronza, temirning kashf etilishi natijasida esa asta-sekinlik bilan temirdan yasala boshlangan.

Ma'lumki, vodiy hunarmandchiligining rivojlanishida temirchilikning pichoqchilik tarmog'i muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda O'zbekiston bo'ylab 20 ga yaqin pichoqchilik markazlari faoliyat olib bormoqda. Ushbu markazlarda yasaladigan pichoqlar nomlanishi va ish jarayoni deyarli bir-biridan farq qilmaydi. Lekin, har bir pichoqchilik maktabining o'ziga xos brendi, uslubi va ishlash texnologiyasi mavjud. Ushbu holat pichoqchi ustalarning o'ziga xos yo'nalishlari asosida vujudga kelgan. Pichoq yasash bilan mashg'ul bo'lgan ustalar pichoqlar orasidan mahsulotni ustaning o'ziga xos uslubi orqali aniqlab olgan. Farg'ona vodiysida Chust va Shahrixondan tashqari Qorasuv, Qo'qon, Andijon kabi yirik pichoqchilik markazlari ham mavjud. Ushbu pichoqchilik markazlarini vujudga kelishiga tabiiy geografik, mahalliy an'analar va

iqtisodiy omillar ta'sir etgan. Vodiy pichoqchilik markazlarining mahalliy xususiyatlari uskunalarining o'ziga xos tuzilishi, mahsulot shakli, tayyorlanish uslubi va bezaklarida aks etgan.

Farg'ona vodiysining Shahrixon, Qo'qon, Andijon va Qorasuv pichoqchilik maktablarida ustalar pichoq tig'ini tayyorlash paytida po'lat sifatini saqlash uchun o'ziga xos "dilikaptar" yoki "kaptarbo'yin" sug'orish uslubidan foydalangan. Bunda po'lat oz-ozdan bir necha marta sug'orilgan, so'ngra tig'da kesuvchi qism pichoq dami ochilgan. Mazkur holat pichoqchilikdagi eng muhim jarayon hisoblangan. Bu borada har bir ustada o'ziga xos usul mavjud bo'lib, ushbu jarayon orqali usta pichoqning sifatli bo'lishini ta'minlagan[3.260].

Sug'orish jarayoni metall turiga ham bog'liq bo'lgan. Pichoq yasashda vodiylilik ustalar Qo'qon hamda Andijonda javdari, Chust va Shahrixonda isfaxoniy, bayza, qurch kabi po'lat turlaridan keng foydalangan. Chunki, mustahkam po'lat ish jarayonida boshqa metallga nisbatan ko'proq sug'orishga moyil bo'lgan.

E'tiborli tomoni shundaki, vodiylilik ustalar pichoq tig'ini mustahkamligini oshirishda o'ziga xos usulni ham o'ylab topgan. Chunki, po'latdan tayyorlangan pichoqlar ma'lum vaqtga kelib zanglab ketishi mumkin bo'lgan. Yuqori navli po'lat bir necha xil metallardan tayyorlangan bo'lsa, oliy navli po'latdan yasalgan pichoqlarni zoklash orqali zanglashdan saqlangan. Zoklash orqali po'lat mustahkamlanib qolmasdan, balki metall yuzasida o'ziga xos gulni eslatuvchi tasvir vujudga kelgan. "Isfaxoniy" nomi bilan mashhur bo'lgan po'lat zoklangach mayda gul tasviri paydo bo'lgan. Po'latdagi tasvirlar orqali hunarmandlar pichoq tayyorlangan po'lat turini va sifatini aniqlaganlar. Ushbu usuldan dastlab Axsikent hunarmandlari, keyinchalik boshqa pichoqchilik markazlari ustalari ham keng foydalangan. Bugungi kunga kelib ham pichoqchi hunarmandlar zoklash jarayonidan muntazam foydalanib kelmoqda. Hozirda zoklash avvalgidек po'lat yemirilishi va po'latga xos metall gulini namoyon etmasada, hozirda foydalanilayotgan oddiy po'latlarni ham mustahkam bo'lishini ta'minlagan.

Farg'ona vodiysida tayyorlanadigan pichoqlarning tig' tuzilishi bir-biridan farq qilgan. Vodiy hunarmandlari tomonidan eng ko'p qayqi, tol bargi, qozoqcha, to'g'ri pichoq va xanjarnusxa turlari tayyorlangan. Ushbu pichoqlar tayyorlashdagi ishlash texnologiyasi bir xilda bo'lsa-da, har bir hududning tig' bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Masalan, Chust va Qo'qonda tayyorlanadigan qayqi pichoqlar tig'ining uchi biroz yuqoriga qaratib ishlansa, Andijon, Qorasuv hamda O'sh ustalari ushbu pichoq tig'ining tepaga ko'tarilgan qismini qalinroq tayyorlagan. Shahrixonda esa Chust va Qo'qon pichoqchiligining ta'siri yuqori bo'lganligi sababli uslublarda katta farq sezilmaydi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash kerakki, Farg'ona vodiysida temirchilik, xususan, pichoqchilik markazlarida mahsulot tayyorlash bilan bog'liq o'zining an'analariga ega. Ushbu

an'analar vodiylarining temirchi va pichoqchi ustalarining tinimsiz mehnati, yuqori mahorati boshqa mintaqalar bilan etnomadaniy aloqalari natijasida takomillashib borgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Набиев П. Фарғона водийси тожиклари анъанавий хунармандчилигининг этнологик таҳлили (каштачилик, кийим-кечак тайёрлаш, дўппидўзлик ва пичоқчилик мисолида) // Талқин ва тадқиқотлар. Республика илмий-услубий журнали. – 2022. – №6. – Б. 23.

2. Исоқов З. С. Фарғона водийси анъанавий деҳқончилик маданияти (Хўжалик-маданий анъаналар: тавсифи ва таҳлил). – Тошкент: Янги нашр, 2011. – 59.

3. Esonov Z., Amanov A. The history of knife preparation craftsmanship in the Fergana valley // Published by International journal of Social Sciences & Interdisciplinary Research. – 2022 – Vol.2 № 11. – P. 223.